



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yunusov Dilshod Raxmatovich

E-mail: dilshod2425.dy@gmail.com

Umirov Jamshed Isirojovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchi

E-mail: jamshidumirov@mail.ru

FANNI O'QITISHDA INTERFAOL TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada malakali kadrlarni tayyorlash va ularning bilimi, saviyasini oshirish, yurtimizni gullab yashnashi uchun barcha imkoniyatlardan unumli foydalanib, dunyo miqyosidagi o'qitish tizimidan yuqori o'rinlarga olib chiqish haqida yuritilgan. Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish orqali talabalarga bilim berish fanni o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: Innovation texnologiyalar, innovation ta'lim texnologiyalari, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ НАУК

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается подготовка квалифицированных кадров и повышение их квалификации, максимальное использование всех возможностей для процветания нашей страны и вывод ее на передовые позиции в мировой системе образования. Особое внимание уделяется тому факту, что предоставление студентам знаний посредством использования интерактивных методов обучения в естественнонаучных дисциплинах имеет большое значение для повышения эффективности преподавания естественных наук.

Ключевые слова: Инновационные технологии, инновационные образовательные технологии, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии.

APPLICATION OF INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS IN TEACHING SCIENCES

ABSTRACT

This article examines the development and professional development of qualified personnel, maximizing all opportunities for our country's prosperity, and elevating it to the forefront of the global education system. Particular attention is paid to the fact that providing students with knowledge through the use of interactive teaching methods in natural sciences is essential for improving the effectiveness of science teaching.


Key words: Innovative technologies, innovative educational technologies, interactive methods, information and communication technologies.

KIRISH

Har qanday ta'limning yo'nalishi va samaradorligi u suyanadigan falsafiy asosga bog'liqdir. Prof. Q.Yo'ldoshev: "Insoniyat tarixi bilan teng bo'lgan pedagogik amaliyot, umumlashtirib olganda, uch falsafiy yo'nalish asosida uyushtirilib kelinayotir. Bu falsafiy yo'nalishlar ...transmissiya, transformasiya, transaksiya tarzida nomlanadi", - deb yozadi[4]. Olimning ta'kidlashicha, ta'lim transmissiya falsafasi asosida tashkil etilganda o'qituvchi o'qitgan, o'quvchilar u bergan bilimlarni

o'zlashtirganlar. Insoniyat egallagan bilimlar ko'payib, ularni yosh avlodga shu holicha o'rgatish mushkul bo'lib qolgach, ta'lim jarayoni transformasiya falsafasiga tayanib tashkil etiladigan bo'ldi va endi maktablarda u yoki bu fanning asoslarini o'rgatish yo'lga qo'yildi.

Bu bosqichda o'qituvchi fan bilan o'quvchilar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi - transformator vazifasini o'tab, odamlar hayoti uchun fanlarning asoslarini yoshlarga singdiradi. Aytilgan har ikki pedagogik falsafa ham ta'lim jarayonining subyektii o'qituvchi, bu kechimdagi asosiy qadriyat esa



egallanadigan bilim deb hisoblagan. Endilikda har qanday kuchli xotira ham cheksiz olamdagi barcha qonuniyatlarni eslab qololmaydi. Bundan tashqari, xotira yordamida o'zlashtiriladigan bilimlar standart vaziyatlar uchungina yaroqli bo'ladi. Ne azobda o'zlashtirilgan bu bilimlar nostandart vaziyatda mutlaqo ish bermay qoladi. Hayot esa hech qachon standartga tushmaydi. Shuning uchun ham fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish orqali talabalarga bilim berish fanni o'qitish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ta'lim metodlaridan foydalangan holda ta'lim berish talabalarni fanga qiziqishlarini oshirish bilan birga ularda o'zlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydigan tizim sifatida ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishga oid jarayonlarga alohida e'tibor qaratilgan. Fanni o'qitish metodlari tahlil va analiz asosida o'rganilgan, hamda xulosalash asosida amaliyotda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovasiya pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limni samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchaya bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga. Mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi [1,2].

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

Nega o'qitamiz?

Nimani o'qitamiz?

Qanday o'qitamiz? savollariga javob izlash bilan bir qatorda

Qanday qilib samarali va natijali o'qitish

mumkin? - degan savoliga ham javob qidirdilar. Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganinipg asosiy sababi qo'yidagilardir: Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya kechishiniing maqsadlaridan boshlab, tashhis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi qadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslaxatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o'quvchi)dan ko'proq mustaqillikni, ijodiy va irodaviy sifatlarni talab etadi[5,6].

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy harakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o'quvchi)ni kim o'qitayotganini va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'ch munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovasion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni

hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («Inter» - bu o'zaro, «ast» - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'рни qisman talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Optimal texnologiyani tanlash bo'yicha tavsiyalar **Ta'lim maqsadlari** – diagnostik, o'qish-o'qitish qayta ishlab chiqiladigan – takrorlanadigan bo'lishi uchun har bir maqsad erishiladigan bo'lishi lozim, ya'ni ta'lim maqsadi shunday ifodalanishi lozimki, unga erishilgani haqida aynan bir xil qaror chiqarish mumkin bo'lsin. Talabani o'rganish natijasini angelaydigan vazifalar oydinlashtirilgan o'quv maqsadlari deyiladi. Oydinlashtirilgan maqsadlar talabani kuzatish, o'lchash mumkin bo'lgan harakatlarini nazarda tutadi.

An'anaviy ta'lim mazmuni ko'pincha, mavzular shaklida bo'lib, ulardan aniq bir xil ma'no anglatadigan o'quv maqsadlarini ajratib olish qiyin. O'quv vazifalari (oydinlashtirilgan maqsad) larini ifodalashni osonlashtirish maqsadida talaba bilib, o'rganib olgan harakatlarni aks ettiradigan fe'llardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, biladi (aniq faktni, qoidani), izohlaydi (sxema, grafik, diagrammani); chiqaradi

(xulosani);

qo'llaydi (tushunchani – yangi vaziyatda); namoyish etadi, ajratadi, topadi (xatoni) kabilar [3,4].

Bugungi kunda davlat va jamiyat boshqaruvi organlarining faoliyatlarini zamonaviy axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida tashkil etish hamda ularning faoliyatida, shuningdek, muayyan tashkilotning boshqaruv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikasion texnologiyalarini joriy etishning asosiligi va maqsadga muvofiqligi bo'yicha kerakli qarorlar qabul qilish uchun bilimlar tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.


Yangi bilimlar tizimini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarning muntazam kasbiy o'sishda interfaol uslublar, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yunaltirilgan innovasion metodikalar, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish nazarda tutiladi.

Ushbu maqolada tahsil olayotgan o'quvchilar uchun fanlardan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy darslarni o'tishda interfaol ta'lim texnologiyasidan foydalanilish tavsiya etiladi.

Buning maqsadi – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim texnologiyasidir.

Xulosa. Interfaol ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozaralar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflandi.

Fan mavzularini o'qitishda optimal ta'lim metodlaridan tanlash uchun, bilim olish jarayonini Qanday?, Nima uchun?, T-sxema, Sinkveyn, Klaster, Veyer sxemasi, Venn-diagrammasi, Baliq skeleti, Nilufar guli,



Bumerang kabi ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda B.Blum taksionomasi yordamida usullarni optimalligini aniqlash uchun foydalandik. Biz foydalangan texnologiyalardan eng katta foiz to'plagani "Bumerang" texnologiyasidir. O'quvchilar o'zlashtirishi uchun eng optimali ekanini aniqladik. Shunday qilib, interfaol ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish, elektron o'quv materiallari va amaliy darslarni o'qitishda bevosita ta'lim sifatini oshirish hamda talabalarning bilim saviyasini oshirishning negizi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Korneyev I.K., Mashursev V.A. «Информационный технологии в управлении» - М: INFRA – М, 2001 – С.158.
2. Yuldoshev J.G. Yangi pedagogik texnologiyalar tushunchalari, muammolari, yechimlari. Xalq ta'limi, 1999, №4.
3. Ishmuhamedov R., Abdukodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.
4. Йўлдошев Қ. Глобаллашаётган дунё ва ўқитишнинг интерфаол усуллари. // Халқ таълими. 2007. 6-сон.
5. Rashidov X., Xabib X. va b. Kasbiy pedagogika o'quv uslubiy qo'llanma. – T.: 2007.
6. Tolipova O'.A., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan", 2006.
7. Kosimov A.X., Xolikova F.A Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent 2004
8. Shayakubov Sh.K. Interfaol ta'lim usullari: T.: 2012.
9. www.ziyonet.uz